ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI

Issue - 9(2026) Available at www.uznauka.uz



ADABIYOT DARSLARIDA NAZARIY MA’LUMOTLARNI O‘RGATISH IMKONIYATLARI

Xo‘jayeva Mohinur Tulqinovna

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: mokh.khujaeva@gmail.com

Annotatsiya. *Ishda adabiyot darslarida nazariy ma’lumotlarni o‘rgatish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Nazariy ma’lumotlarni zamonaviy raqamli vositalar yordamida berish bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi, badiiy asarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Elektron manbalar, interaktiv platformalar, ijodiy loyihalar va sun’iy intellekt vositalarining afzalliklari, cheklovlari ko‘rsatilib, amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *adabiyot, nazariy ma’lumotlar, adabiyot nazariyasi, adabiy ta’lim, raqamli vositalar, videomateriallar, ta’lim platformalari, multimedia, interaktivlik, ko‘nikma, sun’iy intellekt.*

ВОЗМОЖНОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ СВЕДЕНИЙ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Хужаева Мохинур Тулкиновна

Независимый исследователь

Аннотация. В работе анализируются возможности изучения теоретических сведений на уроках литературы. Подача теоретических сведений с помощью современных цифровых средств делает обучение интересным, помогает глубже понять художественное произведение. Показаны преимущества и ограничения электронных ресурсов,



интерактивных платформ, творческих проектов и средств искусственного интеллекта, даны практические рекомендации.

Ключевые слова: литература, теоретические сведения, теория литературы, литературное образование, цифровые средства, видеоматериалы, образовательные платформы, мультимедиа, интерактивность, навыки, искусственный интеллект.

Khujaeva Mokhinur Tulqinovna

Independent researcher

POSSIBILITIES OF TEACHING THEORETICAL INFORMATION IN LITERATURE LESSONS

Abstract. The paper analyses the possibilities of teaching theoretical information in literature lessons. Presenting theoretical information with modern digital tools makes learning more interesting and helps students understand literary works more deeply. The advantages and limitations of electronic resources, interactive platforms, creative projects and artificial intelligence tools are shown, and practical recommendations are given.

Keywords: literature, theoretical information, literary theory, literary education, digital tools, video materials, educational platforms, multimedia, interactivity, skills, artificial intelligence.

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI

Issue - 9(2026)

Available at www.uznauka.uz



KIRISH

Adabiy ta’limda adabiyot o‘qitish orqali o‘quvchilarda obrazli fikrlash, badiiy-estetik did, keng dunyoqarash shakllanadi, kitobga va badiiy asarga bo‘lgan muhabbat hissi ortadi. Zero, badiiy adabiyot inson qalbi go‘zalligini, dilidagi ezgulikni yuzaga chiqaruvchi vositadir. Zamonaviy adabiyot darslarida milliy hamda jahon adabiyoti vakillarining durdona asarlari o‘rin olgan bo‘lib, ular o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va ularning ma’naviy olamini boyitishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta’limning barcha bosqichlarida faol qo‘llanilmoqda va ta’lim jarayonining tez sur’atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda darslarni raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etish munosib o‘rin egalladi. «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasida ta’lim sohasini raqamlashtirish, aholining, ayniqsa yoshlarning raqamli ko‘nikmalarini oshirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan [6]. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari fan va texnika, intellektual salohiyat, kreativ tafakkur va ijtimoiy-madaniy muloqot sohalarida dunyo miqyosida o‘z tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan o‘quvchi shaxsini tarbiyalashga qaratilgan. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish zarur. Bugun barcha sohalarga axborot texnologiyalari shiddat bilan kirib bormoqda, pedagoglardan ham bu jarayonda faollik talab etiladi [9; 341–348-b.].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi o‘quvchi raqamli muhitda ulg‘aygan avlod vakilidir. M. Prenski bunday avlodni «raqamli muhitning tub

aholisi» deb atagan va ularning axborotni qabul qilish usuli avvalgi avloddan jiddiy farq qilishini ko‘rsatgan [7]. Bunday o‘quvchini faqat an’anaviy ma’ruza va qayta hikoyalash bilan badiiy asarga qiziqtirish tobora qiyinlashmoqda. Shu sababli adabiyot darslarida raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash va ulardan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish muhim ilmiy-amaliy vazifadir.

Adabiy ta’limning muhim tarkibiy qismi adabiyot nazariyasiga oid tushunchalarni o‘zlashtirishdir. Obraz, syujet, kompozitsiya, janr, badiiy tasvir vositalari kabi tushunchalarni bilmagan o‘quvchi asarni faqat voqea darajasida qabul qiladi, uning badiiy qimmatini anglay olmaydi.

Ushbu ishning maqsadi adabiyot darslarida nazariy ma’lumotlarni o‘rgatish imkoniyatlarini, bunda raqamli vositalarning o‘rnini tizimlashtirish, ularning afzalliklari va cheklovlarini ko‘rsatish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyot o‘qitish metodikasi qadimiy va boy tajribaga ega bo‘lgani holda, dunyodagi ilg‘or yondashuvlar asosida yangi metod va usullar bilan boyib bormoqda. B. To‘xliyev adabiyot darsining asosiy maqsadi o‘quvchini badiiy matn bilan yuzma-yuz qoldirish, uni asar ustida mustaqil fikrlashga o‘rgatish ekanini ta’kidlaydi [11]. Q. Husanboyeva va R. Niyozmetova esa adabiy ta’limda o‘quvchining mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishni metodikaning markaziy masalasi sifatida ko‘rsatadilar [3]. Demak, har qanday yangi vosita, jumladan raqamli texnologiya ham ana shu maqsadga xizmat qilgandagina o‘zini oqlaydi.

So‘nggi yillarda adabiy ta’limni raqamlashtirish masalasi mahalliy tadqiqotlarda ham faol o‘rganilmoqda. R. Rasulova adabiy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollarini tahlil qilgan [9]. F. Abdullayeva raqamli texnologiyalarning adabiy ta’limdagi o‘rnini yoritgan [1]. A. Sabriyev rivojlangan mamlakatlarda adabiyot o‘qitishda raqamli va audiovizual vositalardan foydalanishning joriy holatini o‘rgangan [10]. N. Abdullayeva adabiyot darslariga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish tendensiyalarini ko‘rsatib bergan [2]. M. Uzoqova esa raqamli texnologiyalar orqali ona tili ta’limini modellashtirish mexanizmlarini tadqiq etgan [12].

Xorijiy tadqiqotlar orasida R. Mayerning multimediali ta’lim nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, inson so‘z va tasvir birgalikda taqdim etilganda materialni faqat so‘z orqali berilgandagiga qaraganda chuqurroq o‘zlashtiradi [4]. P. Mishra va M. Kyoler ishlab chiqqan modelda esa o‘qituvchining texnologik, pedagogik va fanga oid bilimlari bir butun tizim sifatida qaraladi: texnologiya o‘z-o‘zidan natija bermaydi, u fan mazmuni va o‘qitish usuli bilan uyg‘unlashgandagina samarali bo‘ladi [5].

Ishda ilmiy-metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Mahalliy va xorijiy manbalardagi qarashlar solishtirildi, raqamli vositalar dars bosqichlari va didaktik vazifalari bo‘yicha guruhlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Raqamli texnologiyalarga o‘tishning shart-sharoitlari. Ta’limda birdaniga raqamli texnologiyalarga o‘tish murakkab jarayon. Buning uchun internet tarmog‘i

va mobil aloqa sifatini yaxshilash, o‘quvchi yoshlarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yutuqlarni o‘rganish uchun zamin yaratish zarur. Axborot texnologiyalarining integratsiyasini ta’minlash orqali o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga ham sharoit yaratish lozim. Dars jarayonida internet orqali bajariladigan multimediali topshiriqlardan foydalanish, taqdimotlar yaratish o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, dars samaradorligining oshishiga, mavzuning tez va oson o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi. Metodist olimlar adabiyot o‘qitishning eng samarador usullarini ta’limga olib kirish orqali adabiyot darslarining sifatini oshirishga harakat qilmoqdalar. Bu borada yangilanayotgan adabiyot dasturi va darsliklarini eslab o‘tish kifoya.

Maktab darsliklari va o‘qitish usullarini yangilash haqida davlatimiz rahbari shunday degan edi: «Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham o‘zgarmaydi» [1; 10–13-b.]. Ushbu fikr adabiyot faniga ham to‘liq taalluqlidir.

Media vositalari va masofaviy ta’lim. Adabiyot o‘qitishda media vositalaridan foydalanish deganda dars jarayonining turli platformalar, materiallar va vositalar orqali amalga oshirilishi tushuniladi. Audiovizual vositalarning foydali jihatlari haqida gap borar ekan, bir holatni e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Ushbu vositalar asosida shakllangan ilmiy-tarbiyaviy baza yaqin o‘tmishda boshdan kechirilgan pandemiya davrida zaruratga aylangan masofaviy ta’lim uchun ham katta manba bo‘lib xizmat qiladi. Masofaviy ta’limning yutuq va kamchiliklari haqida ko‘p gapirilmoqda, lekin nima bo‘lganda ham, ta’lim-tarbiyaning zamonaviy shakli sifatida u mavjud va unga ehtiyoj bor. Bu borada atoqli adabiyotshunos, pedagog olim Qozoqboy Yo‘ldoshev shunday deydi: «Hamonki,

masofadan o‘qitish ham pedagogik faoliyatning zamon ilgari surgan bir ko‘rinishi ekan va ta’limning bu shakli nafaqat pandemiya yoki o‘zgacha ekstremal holatlarning oqibati, balki ilm taraqqiyotining tabiiy natijasi o‘laroq paydo bo‘lgan va borgan sari rivojlanib hamda takomillashib borayotgan ekan, tadqiqotchilar oldida bu ijtimoiy-ilmiy fenomenga doir qonuniyatlarni aniqlash vazifasi dolzarb bo‘lib turadi».

Raqamli manbalar va mustaqil o‘qish. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilar o‘zlari uchun qulay vaqtda va joyda adabiyotga oid materiallarga murojaat qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Elektron kitoblar, onlayn kutubxonalar, audiokitoblar va videodarslar an’anaviy darsdan tashqari qo‘shimcha manbalarni o‘rganish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Interaktiv ta’lim platformalari va dasturlar adabiyot darslarini yanada jonli qiladi. Masalan, o‘quvchilar matnni tahlil qilish, muallif uslubi va asar mazmunini chuqurroq anglash uchun turli testlar, viktorinalar va o‘yinlar orqali bilimlarini mustahkamlashlari mumkin [10; 237–240-b.].

Audiokitoblarning adabiy ta’limdagi o‘rni alohida e’tiborga loyiq. Mohir so‘z ustasi ijrosidagi she’r yoki nasriy parcha matnning ohangi, ritmi va hissiy bo‘yog‘ini his etishga yordam beradi. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalarini, aruz vaznidagi g‘azallarni o‘rganishda to‘g‘ri va ifodali o‘qish namunasini eshitish o‘quvchi uchun bebaho ko‘makdir. Elektron matnlarda esa izohli lug‘at, havolalar va qidiruv imkoniyati mavjud bo‘lib, o‘quvchi notanish so‘zning ma’nosini shu zahoti aniqlay oladi. Bu mumtoz matnlarni tushunishdagi til to‘sig‘ini kamaytiradi.

Ijodiy loyihalar. Rivojlangan mamlakatlarda adabiyot o‘qitishda media vositalaridan foydalanish jadal rivojlanib, ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Asosiy maqsad ta’limni yanada interfaol, qiziqarli va samarali qilishdan iborat. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilar adabiyotga oid loyihalar yaratishlari mumkin. Masalan, ular sevimli asarlari asosida videotaqdimot, animatsiya yoki qisqa film, kitob treyleri, qahramon nomidan yuritilgan elektron kundalik tayyorlashlari mumkin. Bunday faoliyat o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi va mustaqil fikrlashga undaydi. Shuningdek, o‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini ham egallaydilar, chunki ko‘plab raqamli loyihalar guruhda bajariladi.

Raqamli davr adabiy ta’limni qayta shakllantirgan ko‘plab vositalar va manbalarni olib keldi. Elektron kitoblar, audiokitoblar va onlayn ma’lumotlar bazalari badiiy matnlarni har qachongidan ham qulayroq qildi. Bu o‘zgarish o‘quvchilarga turli formatdagi adabiy asarlar bilan ishlash imkonini berdi. Virtual kitob klublari, munozara forumlari va vebinarlar o‘quvchilarning adabiyot bilan va bir-biri bilan muloqoti uchun dinamik maydon yaratdi. O‘yinlashtirish, interaktiv viktorinalar va sun’iy intellektga asoslangan o‘qib tushunish vositalari adabiyot darslarini qiziqarli va shaxsga yo‘naltirilgan qildi. Onlayn yozish ustaxonalari va hamkorlik platformalari ijodkorlik va tengdoshlardan o‘rganishga yordam berdi [2; 225–228-b.].

Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rgatish. Adabiyot nazariyasi badiiy asarning tuzilishi, tur va janrlari, obraz yaratish yo‘llari, badiiy til xususiyatlarini o‘rganadi. D. Quronov ta’kidlaganidek, nazariy tushunchalar asarni tahlil qilish quroli bo‘lib, ular yodlash uchun emas, matnni tushunish uchun kerak [8]. Maktab amaliyotida

esa nazariy ma’lumot ko‘pincha quruq ta’rif sifatida beriladi va tez unutiladi. Raqamli vositalar mavhum tushunchani ko‘rgazmali qilish imkonini beradi. Masalan, syujet unsurlari, ya’ni ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya va yechimni interaktiv chizmada aniq asar misolida ko‘rsatish mumkin. Adabiy tur va janrlar tizimi tarmoqlangan sxema ko‘rinishida beriladi. Tashbeh, istiora, tashxis, tazod kabi badiiy san’atlarni o‘rganishda o‘quvchilar elektron matndan misollarni rang bilan belgilaydilar va umumiy onlayn jadvalga joylaydilar. Aruz va barmoq vaznidagi she’rlarning ohang farqini audioyozuv orqali eshitish vazn tushunchasini jonlantiradi. Atamalar bo‘yicha elektron lug‘at va interaktiv kartochkalar bilimni mustahkamlaydi. Natijada nazariya amaliy tahlil bilan uyg‘unlashadi.

Dars bosqichlari bo‘yicha qo‘llash. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalarni darsning har bir bosqichida muayyan didaktik vazifaga bog‘lab qo‘llash maqsadga muvofiq. Darsning motivatsiya bosqichida yozuvchi hayotiga oid hujjatli lavha, asar yaratilgan davr manzaralari, adib uy-muzeyiga virtual sayohat o‘quvchi qiziqishini uyg‘otadi. Yangi mavzuni o‘rganish bosqichida elektron matn, audiokitobdan parcha, asar asosida ishlangan film yoki spektakldan lavha bilan ishlash mumkin. Bunda ekranlashtirilgan talqin bilan asl matnni qiyoslash o‘quvchini tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi. Tahlil bosqichida aqliy xaritalar, obrazlar tizimini aks ettiruvchi sxemalar, voqealar ketma-ketligini ko‘rsatuvchi vaqt chizig‘i tuzish dasturlaridan foydalanish samarali. Mustahkamlash bosqichida onlayn viktorina va testlar, krossvordlar, mavzuga oid so‘rovnomalar qo‘llanadi. Uyga vazifa sifatida esa ijodiy loyiha, elektron taqriz yoki sinf blogiga yozuv tayyorlash topshirilishi mumkin.

R. Mayer nazariyasiga ko‘ra, multimediali material ortiqcha bezak va chalg‘ituvchi unsurlardan xoli bo‘lishi, so‘z va tasvir bir-birini to‘ldirishi kerak [4]. Adabiyot darsi uchun bu tamoyil ayniqsa muhim. Taqdimot slaydlarini matn bilan to‘ldirib yuborish yoki darsni uzluksiz videolavhalar namoyishiga aylantirish o‘quvchini asosiy maqsaddan, ya’ni badiiy matnni o‘qish va his etishdan uzoqlashtiradi. Shuning uchun har bir raqamli vosita qisqa, aniq maqsadli va matn tahliliga xizmat qiladigan bo‘lishi lozim.

Raqamli texnologiyalarning afzalliklari. Adabiyot darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchining ishtiyoqini oshiradi, uning bilishga bo‘lgan qiziqishi va mustaqilligini rag‘batlantiradi. Manbalar tahlili asosida quyidagi afzalliklarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy va izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi, faolligini oshiradi. Ikkinchidan, o‘quv jarayonini jadallashtirishga, materialni mazmunli o‘rganishga, o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarini egallashga, tarqoq bilimlarni tizimli bilimga aylantirishga yordam beradi. Uchinchidan, o‘quvchilarning bilish faolligini va fanga qiziqishini kuchaytiradi. To‘rtinchidan, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, o‘rganilayotgan material ustida mulohaza yuritish darajasini sezilarli oshiradi.

Raqamli texnologiyalar taqdim etadigan amaliy imkoniyatlar ham xilma-xil. Test topshiriqlarini avtomatik tekshirish shular jumlasidandir: o‘qituvchi oldindan QR-kod yaratadi, o‘quvchilar uni skanerlab, savollarga javob bergach, o‘z bilimiga mos ballni darhol oladilar. Interaktivlik guruhdagi barcha o‘quvchilarni bir vaqtning o‘zida faol ishga jalb qilish va vaqtni tejash imkonini beradi, uzrli sababga ko‘ra darsga kela olmagan o‘quvchilar ham topshiriqda masofadan

qatnashadilar. Loyiha ustida guruh bo‘lib hamkorlik qilish o‘quvchilarga tarqatma material, taqdimot, o‘yin, boshqotirma va krossvordlarni birgalikda yaratish imkonini beradi. Xilma-xillik esa o‘xshash mashqlarni qisqa vaqtda ko‘p miqdorda yaratishni, shu orqali o‘qituvchi vaqtini tejash va ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi. Ayni paytda maxsus ishlab chiqilgan fan dasturlari, testlar, videodarslar, tematik to‘plamlar va ta’lim jarayonini tashkil etish uchun dasturiy ta’minotni o‘z ichiga olgan ko‘plab raqamli ta’lim resurslari yaratilgan [12; 530–532-b.].

Sun’iy intellekt vositalari. So‘nggi yillarda ta’limga sun’iy intellektga asoslangan vositalar ham kirib kelmoqda. Ular o‘qituvchiga topshiriq va test variantlarini tayyorlashda, o‘quvchi yozma ishlariga dastlabki fikr bildirishda, matnni turli murakkablik darajasiga moslashtirishda yordam berishi mumkin. O‘quvchi esa bunday vositalardan asar haqida savol berish, notanish tushunchalarni aniqlash uchun foydalanadi. Biroq bu yerda jiddiy xavf ham mavjud. Tayyor qisqa mazmun va tayyor insho o‘quvchini asarni o‘qish mehnatidan «ozod qiladi», natijada adabiy ta’limning asosiy maqsadi, ya’ni matn bilan jonli muloqot yo‘qoladi. Shu bois sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish qoidalarini o‘quvchilar bilan oldindan kelishib olish, topshiriqlarni shaxsiy munosabat va matndan dalil keltirishni talab qiladigan tarzda tuzish zarur.

Cheklovlar va muammolar. Raqamli texnologiyalarning afzalliklari bilan bir qatorda ularni qo‘llashdagi muammolarni ham ko‘rsatish lozim. Birinchi muammo texnik ta’minot bilan bog‘liq. Barcha maktablarda, ayniqsa chekka hududlarda internet tezligi va kompyuter jihozlari yetarli emas, bu o‘quvchilar o‘rtasida raqamli tengsizlikni keltirib chiqaradi. Ikkinchi muammo o‘qituvchilarning

tayyorgarligi bilan bog‘liq. P. Mishra va M. Kyoler modeliga ko‘ra, o‘qituvchi texnologiyani bilishi kifoya emas, u texnologiyani fan mazmuni va pedagogik usul bilan uyg‘unlashtira olishi kerak [5]. Uchinchi muammo o‘quvchilarning diqqati bilan bog‘liq: ekran oldida uzoq vaqt o‘tkazish, qisqa videolar va tezkor axborotga ko‘nikish yirik hajmli badiiy asarni sabr bilan o‘qish ko‘nikmasini susaytiradi. To‘rtinchi muammo mualliflik huquqi va manbalar ishonchliligi masalasidir. Internetdagi matnlar ko‘pincha xatolar bilan, qisqartirilgan holda beriladi, shuning uchun o‘qituvchi ishonchli elektron kutubxonalarni tavsiya etishi lozim.

Bu muammolar raqamli texnologiyalardan voz kechishni emas, balki ulardan me’yorida va o‘ylab foydalanishni taqozo etadi. Adabiyot darsining markazida hamisha badiiy matn va uni o‘qiyotgan o‘quvchi turishi kerak [11]. Texnologiya esa shu ikki o‘rtadagi muloqotni osonlashtiruvchi ko‘prik vazifasini o‘taydi. O‘qituvchining jonli so‘zi, ifodali o‘qishi, sinfdagi bahs-munozara muhitini hech qanday dastur to‘liq almashtira olmaydi [3].

O‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar. Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib, raqamli muhitda ishlaydigan adabiyot o‘qituvchisiga qo‘yiladigan asosiy talablarni ko‘rsatish mumkin. U ishonchli elektron manbalarni tanlay olishi, taqdimot va interaktiv topshiriqlar tayyorlash dasturlarini bilishi, onlayn baholash vositalaridan foydalana olishi, o‘quvchilarning raqamli loyihalarini baholash mezonlarini ishlab chiqa olishi, axborot xavfsizligi va mualliflik huquqi qoidalariga rioya qilishi zarur. Buning uchun malaka oshirish kurslariga adabiyot fani xususiyatlarini hisobga olgan maxsus modullarni kiritish, ilg‘or o‘qituvchilar tajribasini ommalashtirish, fan bo‘yicha milliy elektron resurslar bazasini boyitish maqsadga muvofiqdir.



An’anaviy va raqamli ta’limning uyg‘unligi. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning eng maqbul yo‘li ularni an’anaviy dars bilan uyg‘unlashtirishdir. Aralash ta’lim modelida o‘quvchi nazariy ma’lumotni, masalan, adibning tarjimayi holi, asar yaratilgan davr haqidagi videoma’ruzani uyda mustaqil ko‘radi. Sinfdagi vaqt esa eng muhim ishga, ya’ni matnni birgalikda o‘qish, tahlil qilish va bahslashishga sarflanadi. Bunday tashkil etilgan dars «teskari sinf» deb ham ataladi. Uning afzalligi shundaki, o‘qituvchi dars vaqtini ma’lumot aytib berishga emas, o‘quvchining fikrini tinglash va yo‘naltirishga ajratadi. Adabiyot fani uchun bu juda muhim, chunki badiiy asar tahlili tayyor bilimni yodlash emas, shaxsiy munosabat bildirishni talab qiladi [11].

Amaliy misol. Fikrimizni bir misol bilan asoslaymiz. Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanini o‘rganishda raqamli vositalardan quyidagicha foydalanish mumkin. Dars oldidan o‘quvchilarga adib hayoti va roman yozilgan davr haqida qisqa videolavha hamda elektron matndan belgilangan boblar beriladi. Dars boshida o‘quvchilar onlayn so‘rovnoma orqali asar haqidagi ilk taassurotini bir-ikki so‘z bilan bildiradi, javoblar ekranda «so‘zlar buluti» ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu o‘qituvchiga sinfning umumiy kayfiyatini bir zumda ko‘rish imkonini beradi. Asosiy bosqichda roman asosida suratga olingan filmdan bir lavha namoyish etiladi va u asl matn bilan qiyoslanadi: rejissor nimani saqlagan, nimani o‘zgartirgan, qaysi talqin ta’sirliroq? So‘ng guruhlar obrazlar tizimining aqliy xaritasini tuzadilar. Dars yakunida qisqa interaktiv test o‘tkaziladi, uyga esa «Otabekka maktub» mavzusida elektron insho yoki asar uchun kitob treyleri tayyorlash topshiriladi.

Ko‘rinadiki, bu darsda raqamli vositalar ko‘p, ammo ularning har biri qisqa va aniq vazifani bajaradi. Darsning markazida esa baribir roman matni va o‘quvchi mulohazasi turadi. R. Mayer ta’kidlagan tamoyilga muvofiq, bu yerda tasvir va so‘z bir-birini takrorlamaydi, balki to‘ldiradi [4].

Raqamli loyihalarni baholash. O‘quvchilarning raqamli ijodiy ishlarini baholash alohida masala. Videotaqdimot yoki kitob treyleri baholanganda texnik bezakka emas, mazmunga ustuvorlik berish lozim. Baholash mezonlari sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin: asar mazmuni va g‘oyasining to‘g‘ri tushunilgani, matndan olingan dalillarning mavjudligi, o‘quvchining shaxsiy munosabati va mustaqil fikri, nutqning savodli va ifodali ekani, jamoada ishlash darajasi, manbalarga havola berilgani. Mezonlar o‘quvchilarga oldindan e’lon qilinsa, ular nimaga e’tibor qaratish kerakligini biladilar va ish sifati ortadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning bir-birining ishiga taqriz yozishi tanqidiy fikrlashni va o‘zaro hurmat asosidagi bahs madaniyatini shakllantiradi.

Kitobxonlik madaniyati masalasi. Raqamli texnologiyalarning adabiy ta’limdagi eng muhim vazifasi o‘quvchini kitobga qaytarishdir. Ko‘pchilik o‘smirlar bo‘sh vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazadi. O‘qituvchi shu muhitdan ta’lim maqsadida foydalanishi mumkin. Sinf uchun yopiq guruh yoki kanal ochib, unda o‘qilgan kitoblar haqida qisqa taassurotlar, sevimli iqtiboslar, kitobxonlik marafoni natijalari e’lon qilib borilsa, o‘qish jamoaviy va qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. M. Prenski qayd etganidek, raqamli avlod bilan ularning tilida muloqot qilish o‘qituvchining kasbiy vazifasiga aylanmoqda [7]. Ayni paytda o‘quvchiga qog‘oz kitob o‘qishning o‘ziga xos zavqini ham his ettirish, ekran va kitob o‘rtasida muvozanat saqlashga o‘rgatish zarur.

Gigiyena va axborot xavfsizligi. Raqamli vositalardan foydalanishda o‘quvchi salomatligi va xavfsizligi ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Dars davomida ekran bilan ishlash vaqti yosh xususiyatlariga mos me’yorda bo‘lishi, ko‘z va qomat uchun tanaffuslar berilishi lozim. O‘quvchilarga internetdan topilgan ma’lumotni tekshirish, ishonchli manbani ishonchsizidan ajratish, o‘zgalar matnini ko‘chirmasdan manbaga havola berish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qoidalarini o‘rgatish ham adabiyot o‘qituvchisining vazifalari qatoriga kiradi. Bu ko‘nikmalar media savodxonlikning tarkibiy qismi bo‘lib, badiiy matnni tanqidiy o‘qish malakasi bilan bevosita bog‘liq.

Lirik asarlarni o‘rganishda raqamli vositalar. She’riy asarlarni o‘rganish adabiyot darsining eng nozik qismi hisoblanadi. Bu yerda raqamli vositalar ayniqsa qo‘l keladi. She’rning shoir yoki mohir san’atkor ijrosidagi audioyozuvini tinglash, she’r asosida yaratilgan qo‘shiqni eshitish, matnga mos tasviriy san’at asarlarini ekranda ko‘rish o‘quvchining hissiy idrokini kuchaytiradi. Mumtoz g‘azalni o‘rganishda elektron lug‘at yordamida eskirgan so‘zlar ma’nosini aniqlash, aruz vazni chizmasini interaktiv doskada birgalikda tuzish, g‘azalning turli xonandalar ijrosidagi talqinlarini qiyoslash mumkin. O‘quvchilar o‘zlari ham she’rni ifodali o‘qib, ovoz yozuvini tayyorlashlari va sinfdoshlari bilan bo‘lishishlari mumkin. Bu mashq ifodali o‘qish malakasini rivojlantiradi, o‘quvchi o‘z ijrosini tinglab, kamchiligini o‘zi anglaydi.

Dramatik asarlarni o‘rganishda esa spektakl videoyozuvlaridan foydalanish samarali. Drama sahna uchun yozilgani bois, uni faqat o‘qish bilan to‘liq tushunish qiyin. Spektakldan lavha tomosha qilish, aktyor talqinini muhokama qilish, so‘ng o‘quvchilarning o‘zlari biror sahnani rollarga bo‘lib o‘qib, videoga olishi asarni

jonli his etishga yordam beradi. Shu tariqa har bir adabiy tur va janr o‘ziga mos raqamli vositani talab qiladi, o‘qituvchi esa vositani asar tabiatidan kelib chiqib tanlashi lozim [3].

Hududiy va milliy resurslar. Adabiyot darslarini raqamlashtirishda milliy kontentning yetarli bo‘lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbek adabiyoti namunalari jamlangan elektron kutubxonalar, adiblar uy-muzeylarining virtual sayohatlari, o‘zbek tilidagi audiokitoblar soni yildan-yilga ko‘paymoqda. Shunga qaramay, maktab dasturidagi barcha asarlarning ishonchli, xatosiz elektron matni, mumtoz asarlarning izohli raqamli nashrlari, sifatli videodarslar hali yetarli emas. Bu bo‘shliqni to‘ldirishda oliy ta’lim muassasalari, xususan, filolog va pedagog magistrantlarning ilmiy-ijodiy loyihalari muhim hissa qo‘shishi mumkin. Talabalar tomonidan tayyorlangan izohli elektron matnlar, interaktiv topshiriqlar to‘plami va videodarslar maktab o‘qituvchilari uchun tayyor metodik yordam bo‘lib xizmat qiladi [9].

Istiqboldagi vazifalar. Mavzu bo‘yicha kelgusida hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator ilmiy-metodik vazifalar mavjud. Avvalo, raqamli vositalarning adabiy ta’lim samaradorligiga ta’sirini tajriba-sinov ishlari asosida o‘rganish, ya’ni raqamli vositalar qo‘llangan va qo‘llanmagan sinflardagi natijalarni qiyoslash zarur. Bunda faqat test natijalari emas, o‘quvchilarning mutolaaga qiziqishi, mustaqil o‘qigan kitoblari soni, og‘zaki va yozma nutqining rivoji ham hisobga olinishi kerak. Shuningdek, har bir sinf va har bir adabiy tur uchun raqamli vositalardan foydalanishning metodik xaritasini ishlab chiqish, o‘qituvchilar uchun namunaviy dars ishlanmalari to‘plamini yaratish maqsadga muvofiq. Pedagogika yo‘nalishidagi talabalarni tayyorlash jarayonida raqamli adabiy ta’lim bo‘yicha

maxsus amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘lajak o‘qituvchilarning bu sohadagi tayyorgarligini mustahkamlaydi. Bunday izchil yondashuv raqamli texnologiyalarning adabiyot darslaridagi imkoniyatlaridan to‘liq va oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

XULOSA

Shunday qilib, adabiyot darslarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari juda keng va ko‘p qirrali. Ular o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qiladi, o‘qituvchiga esa darsni yanada sifatli tashkil etishga yordam beradi. O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosa va takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, raqamli texnologiyalar adabiy ta’limda maqsad emas, vositadir. Ular badiiy matnni o‘qish va tahlil qilishga xizmat qilgandagina samara beradi.

Ikkinchidan, raqamli vositalarni darsning har bir bosqichida aniq didaktik vazifaga bog‘lab qo‘llash lozim: motivatsiya bosqichida audiovizual materiallar, tahlil bosqichida sxema va aqliy xaritalar, mustahkamlash bosqichida interaktiv testlar, uyga vazifada ijodiy raqamli loyihalar.

Uchinchidan, raqamli chizma, sxema va interaktiv mashqlar adabiyot nazariyasiga oid mavhum tushunchalarni ko‘rgazmali qiladi va ularni matn tahlilida qo‘llashga o‘rgatadi.

To‘rtinchidan, elektron kutubxona, audiokitob va videodarslar o‘quvchining mustaqil o‘qish ko‘nikmasini rivojlantiradi, mumtoz matnlarni tushunishni yengillashtiradi.

Beshinchidan, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishda ehtiyotkorlik zarur. Topshiriqlar o‘quvchining shaxsiy munosabati va matn bilan bevosita ishlashini talab qiladigan tarzda tuzilishi kerak.

Oltinchidan, raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun zarur texnik sharoit yaratish, o‘qituvchilarning raqamli-pedagogik kompetensiyasini oshirish, adabiyot fani bo‘yicha ishonchli milliy elektron resurslar bazasini kengaytirish muhimdir. Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan ishlar ta’lim sifatini oshirishga, kelajak avlodni yanada bilimli va ma’naviyatli qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Abdullayeva F. Adabiy ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni. 10–13-b.

2. Abdullayeva N.N. Adabiyot darslarida raqamli texnologiyalarni tatbiq etish tendensiyalari // Modern Science and Research. 2024. Vol. 3, Issue 1. 225–228-b.

3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2018.

4. Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

5. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. 2006. Vol. 108, No. 6. P. 1017–1054.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6079-son Farmoni // lex.uz.



7. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. 2001. Vol. 9, No. 5. P. 1–6.

8. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.

9. Rasulova R.B. Adabiy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari // Republican Scientific and Practical Conference. October 20, 2023. 341–348-b.

10. Sabriyev A.A. Rivojlangan mamlakatlarda adabiyot fanini o'qitishda raqamli texnologiya va audiovizual vositalardan foydalanishning joriy holati. 2024. 237–240-b. https://doi.org/10.5281/zenodo.14225775

11. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

12. Uzoqova M.A. Raqamli texnologiyalar orqali ona tili ta'limni modellashtirish va tashkil etish mexanizmlari // Экономика и социум. 2024. №12(127)-1. 530–532-b.